

## AYOLLARGA NISBATAN TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKNI OLDINI OLISH

**Mamasoliyeva Gulnoza**

Guliston Davlat Pedagogika Instituti Ijtimoiy –gumanitar fanlarni o‘qitish  
metodikasi(huquq ta’limi) yo‘nalishi 1- kurs magistranti

**Annotasiya:** Ushbu maqolada tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollarni qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy reabilitatsiyani amalga oshirish o‘rganilgan. Maqolada BMTning ayollar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi deklaratsiyasi, shuningdek, amaliyotdagi o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ayollar huquqlarini himoya qilishda jamiyat va davlat tashkilotlarning roli muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** ayollar huquqi, gender tenglik, tazyiq, zo‘ravonlik, oilaviy zo‘ravonlik, zo‘ravonlik turlari, qonunchilik, himoya orderi, Islom, psixologik yordam, reabilitatsiya qilish.

**Abstract:** This article examines the support of women who have suffered oppression and violence, the protection of their rights and interests, and the implementation of social rehabilitation. The article analyzes the UN declaration on the protection of women's rights, as well as changes in practice. Also, the role of society and state organizations in protecting women's rights is discussed.

**Key words:** women's rights, gender equality, oppression, violence, family violence, types of violence, legislation, protection order, Islam, psychological support, rehabilitation.

Jamiyatning madaniy darajasi uning ayollarga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi”. Shavkat Mirziyoyev.

### **Kirish.**

“Birlashgan Millatlar Tashkiloti xotin-qizlarga jismoniy, jinsiy yoki ruhiy zarar yoki azob-uqubatlarga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan, ushbu jinsga nisbatan har qanday zo‘ravonlik harakatini, jumladan, bunday xatti-harakatlar bilan tahdid qilish, majburlash yoki o‘zboshimchalik bilan ozodlikdan mahrum qilish holatlari jamoat yoki shaxsiy hayotda bo‘lishida qat’iy nazar, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik deb ta’riflaydi”.

Ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik masalasi nafaqat insonlarning, balki butun jamiyatning rivojlanishiga jiddiy to‘sqinlik qiladigan global muammolardan biridir. Tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish esa inson huquqlari, gender tenglik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi. Ammo bugungi kunda ayrim kimsalar ojiza qatlam vakillariga o‘z zo‘ravonligini ko‘rsatishga

urinishmoqda. Bu kabi holatlar nafaqat xotin-qizlar ruhiyati, balki tazyiq va zo‘ravonlik holatlari mavjud bo‘lgan oilada ulg‘ayayotgan farzandlar ruhiyatiga ham, tarbiyasiga ham o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatishi, shubhasiz. Bunday oilada o‘tib-ulg‘ayayotgan bolalar o‘ziga ishonchsiz, qat’iyatsiz bo‘lib qolishi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Mazkur mavzu jabrlangan xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish hamda uning profilaktikasini amalga oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini hal etishga qaratilgan.

### **Material va metodlar**

Ushbu maqola ayollarga nisbatan ishlatiladigan zo‘ravonlik va tazyiqning oldini olishga doir masalalarni tahlil etishda ilmiy bilishning tarixiy, huquqiy, statistik, huquqni qo‘llash amaliyoti usullaridan hamda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi, milliy va xalqaro huquqiy hujjatlardan foydalaniladi. “Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to‘g‘risi” gi deklaratsiya, “ Xotin- qizlar huquqlarini kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida” gi konvensiya va boshqa muhim manbalar tahlil qilindi. Shuningdek, ayollar huquqlarini himoya qilish va ularga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikni oldini olishdagi mavjud muammolar o‘rganildi.

### **Adabiyotlar tahlili**

1948 yil 10 – dekabrda qabul qilingan “Inson huquqlari umujahon deklaratsiyasi” va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “Millati, dini, irqi, jinsidan qat’iy nazar har bir insonning teng huquqli” ligi ta’kidlab o‘tilgan.

1967 yil 7 noyabrda BMT Bosh Assambleyasining 2263 (XXII) – rezolyusiyasi bilan e‘lon qilingan “Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to‘g‘risida”gi deklaratsiya qabul qilindi va ushbu deklaratsiya 11 moddadan iborat. Unda ayollar va erkaklarning jamiyatning barcha sohalarida teng huquqliligi ta’minlash belgilanishi bilan bir qatorda, barcha millat va elat vakillarini gender tenglik prinsipini to‘g‘ri anglab yetishlari lozimligi qayd etilgan. “Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to‘g‘risida”gi deklaratsiyaning 3 –moddasida “Ayollarning to‘laqonli emasligi g‘oyasiga asoslangan tushunchalarga barham berish, odatlar va boshqa amaliyotni tugatishga jamoatchilik fikrini tayyorlash va milliy intilishlarni qaratish maqsadida barcha tegishli choralar ko‘rilishi lozim”, deb belgilangan.

Shuningdek, 1980 yil 1 martda imzolangan, 30 moddadan iborat “Xotin – qizlar huquqlarini kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi Konvensiya qabul qilingan. Ushbu konvensiya shiori “... mamlakatning to‘liq rivojlanishi, butun dunyoda farovonlik va tinchlik ishi barcha sohalarda ayollarning erkaklar bilan baravar mumkin qadar ko‘proq ishtirok etishlarini talab qiladi” deb belgilangan. Konvensiyaning 1 –moddasida “Mazkur Konvensiyaning maqsadi o‘laroq “xotin – qizlarning kamsitilishi” tushunchasi, har qanday farq, jinsiy belgilariga ko‘ra istisno qilish, cheklash tan olmaslik, yo‘qqa chiqarish yoki

bo'shashtirishga yo'naltirilgan, ayollar foydalanayotgan yoki amalga oshirayotgan har qanday siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqaroviy va boshqa sohada oilaviy sharoitidan qat'i nazar erkak va ayollarga tenglik asosida inson huquqlari va asosiy erkinliklar berilishini anglatadi", deb ayol huquqlari qonuniy jihatdan qayd etilgan.

Oamlarning Buyuk tarbiyachisi bo'lmish Alloh taolo Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karimning Niso surasi 19 – oyati “Ular bilan tinch – totuv yashanglar. Agar ularni yomon ko'rsangizlar ham (sabr qilib inoq holda yashayveringlar). Zero sizlar yomon ko'rgan narsada Alloh ko'p yaxshiliklarni qilib qo'ygan bo'lishi mumkin” ni nozil qildi. Jannatning gul-u rayhonlari bo'lmish farzandlarimizni tarbiyalab, voyaga yetkazuvchi ayollarga nisbatan erlari tomonidan zo'ravonlik, kuch ishlatish kabi holatlarning ro'y berayotgani juda ayanchli holat. Teleekranlarda, internet sahifalarda ko'rishning o'zida insonda nafrat qo'zg'atuvchi, odamlarning ko'plab e'tirozlariga sabab bo'layotgan holatlar kun sayin ko'paymoqda. Sahih hadislariga ko'ra, Abdulloh ibn Zam'a roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Birortangiz o'z ayolini qulni kaltaklagandek kaltaklamasin» dedilar. Bu bilan Islom dinida ayol kishining qadr –qimmati yuqoriligi yana bir bor ta'kidlangan.

Ayollarning jamiyat hayotidagi o'rnini oshirish va mustahkamlash borasida bugungi kunda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevral kuni “Xotin –qizlarni qo'llab –quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida”gi PF-5325-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4235-son qarori, 2019 yil 2 sentabr kuni “Xotin – qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida” O'RQ-552-sonli Qonuni qabul qilingan. Mamlakatimizda xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etish maqsadida “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi Qonun (2020-y.) qabul qilinib, xotinqizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishning asosiy ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Mazkur Qonunning qabul qilinishi: birinchidan, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish borasida faoliyat olib boruvchi subyektlarning vazifa va vakolatlarini; ikkinchidan, oila-turmushdagi zo'ravonlikdan jabrlanuvchining huquqlarini himoya qilishni, uchinchidan, ushbu sohada faoliyat olib boruvchi subyektlarning vakolatlarini; to'rtinchidan, himoya orderini berish amaliyotini; beshinchidan, zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus markazlarni yaratishning huquqiy asoslarini belgilab berdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 42- moddasida xomiladorligi yoki bolasi borligi sababli

ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi. Ayollar huquqlari kafolatlanganda, ayollar mehnat bozorida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa iqtisodiy o'sishga, oilaviy daromadlarning oshishiga va umumiy farovonlikka olib keladi.

Bugungi kunda dunyoning yuzdan ortiq mamlakatlarida xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha qonunlar qabul qilingan bo'lib, AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Fransiya, Avstraliya kabi davlatlar o'zining tajribasi va o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. AQSHda ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurash bo'yicha quyidagi amaliyot mavjud: a) oiladagi zo'ravonlik jabrlanuvchilari uchun 1,5 ming ta markazlar, alohida uylar mavjud; b) kecha-yu kunduz faoliyat yurituvchi "ishonch telefon"lari tashkil qilingan; d) oilada zo'rlik ishlatishning oldini olishga qaratilgan maxsus rejalar ishlab chiqilib samarali profilaktik choralarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratiladi; e) yakka tartibdagi profilaktikasi yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Kanada davlati oiladagi zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha quyidagi tajribalar mavjud: 1. Krizis markazlari tashkil etilib, ularning soni ehtiyojdan kelib chiqib ko'paytirilgan. 2. Sog'liqni saqlash vazirligida oiladagi zo'ravonlik holatlarini tahlil qiladigan va umumlashtiradigan markaz ochilgan. 3. Mamlakatda oiladagi zo'ravonlikning salbiy jihatlari ko'rsatuvchi 50dan ortiq filmlar tayyorlangan va 26 namoyish qilingan. 4. "Yuzma-yuz" deb nomlangan oiladagi zo'ravonlik holatlarini yoritib boruvchi ijtimoiy nashr joriy qilingan. 5. Ijtimoiy himoya xodimlarini tayyorlash programmalari tuzilgan.

Shvetsiya davlatida oiladagi zo'ravonlikni oldini olish bo'yicha quyidagi tajribalar mavjud: a) oiladagi zo'ravonlik holatlarining oldini olishning eng asosiy usullari sifatida ayollar o'zlarining huquq va erkinligini to'liq bilishi hamda undan foydalanishi talab etiladi; b) parlament a'zolarining yarmiga yaqini ayollarni tashkil etadi; d) mamlakatda ikkala jins ham qog'ozda, ham hayotda teng huquqlarga egadir; e) "Erkaklarning ayollarga nisbatan zo'ravonligining oldini olish va oldini olish bo'yicha Milliy strategiya" qabul qilinib, amalga oshirilishi lozim bo'lgan barcha chora-tadbirlar hukumat darajasida belgilab qo'yilgan.

### **Muhokama va Natijalar**

Zo'ravonlik esa qonun bilan ta'qiqlangan ma'naviy, ruhiy va jismoniy zarar yetkazuvchi harakatlarni shaxs xohish irodasiga qarshi ravishda amalga oshirishdir. Zo'ravonlikning ko'rinishlari turlicha bo'lib, 2019 yil 2 sentabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" Qonunida zo'ravonlikning to'rt asosiy turi belgilangan. Bular:

1. Jismoniy zo'ravonlik;
2. Ruhiy zo'ravonlik;
3. Jinsiy zo'ravonlik;

#### 4. Iqtisodiy zoʻravonlik

Jismoniy zoʻravonlik - Ogʻirligi turli darajada boʻlgan tan jarohatlari yetkazish, xavf ostida qoldirish, hayoti xavf ostida qolgan shaxsga yordam koʻrsatmaslik, zoʻravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklar sodir etish, jismoniy taʼsir oʻtkazish yoki bunday taʼsir oʻtkazishning oʻzga choralarini qoʻllash bilan tahdid qilish. Jismoniy zoʻravonlikka shapaloq tortish, tepish, turtkilash, musht bilan urish; zarb bilan itarib yuborish; turli oʻtkir buyum va narsalarni otish; qurol bilan xavf solish yoki yaralash; uydan chiqishga jismonan yoʻl qoʻymaslik; kechasi uxlashga qoʻymaslik kabilarni misol keltirishimiz mumkin.

Ruhiy zoʻravonlik deganda, xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning shaʼnini, qadr-qimmatini kamsitish, reproduktiv sohada nazorat qilish, oʻz xavfsizligi uchun xavotir uygʻotgan, oʻzini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sogʻligʻiga zarar yetkazgan harakat (harakatsizlik) tushuniladi.

Jinsiy zoʻravonlikka - xotin-qizlarning roziligisiz shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish, shuningdek zoʻrlik ishlatish yoki zoʻrlik ishlatish bilan tahdid qilish yoxud ayol jinsidagi voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish orqali uchinchi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishga majburlash kabilar misol boʻladi.

Iqtisodiy zoʻravonlik deganda esa, xotin-qizlarning normal yashash va kamol topish uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan taʼminlanishga boʻlgan huquqini, mulk huquqini, taʼlim olish hamda mehnatga oid huquqini amalga oshirishni cheklashga olib keladigan harakat (harakatsizlik) tushuniladi.

Ushbu zoʻravonliklarning barcha turi afsuski ayrim oilalardan uchrab turibdi. Hozirgi kunda dunyo miqyosida har uch ayoldan biri jismoniy yoki jinsiy zoʻravonlik qurboni boʻlmoqda. Odam savdosi qurbonlarining 71 foizi – ayollar. Reprodukativ yoshdagi ayollar orasida oʻlim holati va nogironlikni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablardan biri – ularga nisbatan zoʻravonlikning qoʻllanilishi.

Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti maʼlumotlariga koʻra, dunyodagi har uchinchi ayolga hayoti davomida oʻz umr yoʻldoshi tomonidan jismoniy tazyiq oʻtkaziladi. Turmush qurgan ayollarning 30 foizi hamrohi tomonidan zoʻravonlik holatlariga duch kelganlari haqida maʼlum qiladi. Ayollar oʻlimining 38 foizi ularning turmush oʻrtogʻi tomonidan amalga oshiriladi va zoʻravonlikka duch kelgan ayollarning 42 foizigina muammo haqida ochiq soʻzlaydi. Aksariyat holatlarda zoʻravonlik qurboni sharmandalik va turli gap soʻzlardan qoʻrqib jim yurishga majbur boʻladi. Bunday vaziyatda qolgan ayollarning indamasligiga bir necha sabab boʻladi, kimlardir moliyaviy yordamsiz qolishdan qoʻrqsa, boshqalari farzandlari va oʻz hayoti uchun xavfsiraydi.

Insonparvarlik tamoyillarini va axloq mezonlarini o'ziga shior qilib olgan dunyoviy dinlar kabi Islom dini ham zo'ravonlikning barcha ko'rinishlariga qarshi. Ayollar qadr – qimmatini ta'kidlab o'tuvchi oyat va hadislar bisyor. Abdulloh ibn Zam'a roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Birortangiz o'z ayolini qulni kaltaklagandek kaltaklamasin» dedilar. Chunki inson hayoti, uning sha'ni va g'ururi oliy ne'mat sifatida berilgan. Uni nafaqat boshqa insonlar, balki o'sha insonning o'zi ham beqadr qilishiga haqqi yo'q. Shuningdek, Sa'd ibn Abu Vaqqos roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Allohning vajhini istab nafaqa qilsang, unga albatta ajr olasan, hatto ayolingning og'ziga solib qo'ygan narsang uchun ham”, dedilar”. Demak, Allohning rizoligini topish oila mustahkamligi va xotirjamligi bilan erishilar ekan. Oila a'zolariga iqtisodiy yoxud ruhiy tomondan aziyat yetkazish esa eng tuban, pastkash odamlar ishidir.

“Ayol baxtli bo'lsa jamiyat baxtlidir. Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tenglikni taminlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat hamda turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi” deb ta'kidlaydilar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Davlat va jamoat arbobi, O'zbekistonda Gender tengligini taminlash komissiyasi a'zosi Saida Mirziyoyeva 2020-yil 17-18 fevral kunlari Dubayda bo'lib o'tgan Butunjahon ayollar forumida ishtirok etdi va u yerda nutq so'zladi, „O'zbekistonning yangi strategiyasida inson huquqlarini ta'minlash muhim jihatlaridan biridir, bunga esa xotin qizlar huquqlarini ta'minlamasdan erishib bo'lmaydi. Ayollar O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan, lekin ularning mehnati doim ham munosib baholanmagan. Shu bois, bugun Prezidentimizning xotin qizlar jamiyatdagi o'rnini o'zgartishga qaratilgan doimiy say harakatlari tufayli mamlakatimizdagi gender vaziyat o'zgardi”.

Har yili butun dunyo bo'ylab “Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi 16 kun” nomi ostida kampaniya o'tkaziladi. Ushbu kampaniya ayollarga nisbatan zo'ravonlik inson huquqlariga zid harakat ekanini ifodalovchi fikr bilan ramziy bog'langan ikki voqea 25 noyabr – Xalqaro xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikni bartaraf etish kunida boshlanib, 10 dekabr – Xalqaro inson huquqlari kunida yakuniga yetadi. O'zbekistonda ushbu kampaniya 2011 yildan buyon “Uydagi osoyishtalikdan dunyodagi tinchlik sari” shiori ostida muvaffaqiyatli o'tkazilmoqda. 2020 yil 26 noyabr kuni “Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi 16 kun” kampaniyasining bu yilgi ochilish marosimi bo'lib o'tdi va ushbu tadbirda “COVID-19 pandemiyasining xotin – qizlarga nisbatan ta'siri: uning oqibatlarini yumshatish bo'yicha ko'rilgan chora – tadbirlar, olingan saboqlar va keyingi qadamlar” mavzusida onlayn uchrashuv bo'lib o'tdi. Ma'lumki, 2020 yil 4 yanvardan boshlab

tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin –qizlarga nisbatan himoya orderi joriy etildi. Bundan tashqari, jabrlangan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish, ularga psixologik, ijtimoiy, huquqiy va moddiy ko‘mak ko‘rsatish, shu holatdan chiqishi uchun kasb-hunar o‘rgatish, mehnatga jalb qilish maqsadida barcha hududlarda Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Xotin-qizlarni himoya qilishda ichki ishlar organlari ayollar masalalari bo‘yicha inspektorlari lavozimi joriy etildi. Shuningdek, xotin-qizlarga nisbatan huquqbuzarliklarning oldini olishda ularning muammolari haqida o‘z vaqtida xabar topish va tegishli idoralar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ishlari ham amalga oshirilmoqda.

Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi xabariga ko‘ra, 7 oy ichida 3592 nafar xotin – qizlarga himoya orderi berilgan. Vazirlik ma‘lumotiga ko‘ra, himoya orderlari berilgan hududlar Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Buxoro viloyatlari soni boshqalarga nisbatan ko‘p. Joriy yil 20 aprel holatiga ko‘ra, oilaviy zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan 14 nafar ayol farzandlari bilan Andijon, Buxoro, Jizzax, Samarqand, Surxondaryo viloyatlaridagi Reabilitatsiya va moslashtirish markazlariga joylashtirildi. Ularga kerakli huquqiy, psixologik, tibbiy yordam ko‘rsatib kelinmoqda. Bu statistik ma‘lumotlar inson o‘z ustida ishlab, g‘azabini jilovlashni o‘rganmagunigacha shayton vasvasasidan holi bo‘la olmaydi. O‘zini, atrofidaqlarini, jamiyatini uyatli holatga solib qo‘yaverishini ko‘rsatmoqda. Zero, baxtli bo‘lish, farovon hayot kechirish har birimizning o‘z qo‘limizda.

“O‘zbekistonda 2030-yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasi” qarorlar qabul qilish va ijro etishning barcha sohalarida hamda darajalarida xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasida tenglik tamoyilini tatbiq etishga keng qamrovli yondashuvni nazarda tutadi. Shuningdek, Strategiya erkaklar va ayollarning teng huquqlari va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratish hamda insonning fundamental huquqlariga rioya qilish maqsadida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotda gender tenglik targ‘ib qilinishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Strategiyada barcha uchun teng huquqli va sifatli ta‘limni ta‘minlash, qishloq joylarida qizlarning oliy ma‘lumotga ega bo‘lishi, xotin-qizlar gender tengligiga erishish, zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymaslik, odam savdosining oldini olish kabi masalalar qamrab olingan.

### **Xulosa**

Ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikni oldini olish – inson huquqlarini himoya qilish, jamiyat barqarorligini ta‘minlash va adolatli muhit yaratish yo‘lidagi muhim qadamdir. Ushbu muammoni hal qilish uchun davlat organlari, fuqarolik jamiyati, ommaviy axborot vositalari va har bir shaxsning birgalikdagi sa’y-harakatlari talab etiladi.

Qonunchilikni kuchaytirish, ta‘lim orqali xabardorlikni oshirish va gender tenglikni targ‘ib qilish orqali biz zo‘ravonlikning ildiziga qarshi samarali kurasha

olamiz. Ayollarga hurmat va teng imkoniyatlar ta'minlangan jamiyat esa iqtisodiy va madaniy rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shunday ekan, barchamiz bu mas'uliyatni his qilib, harakat qilishimiz zarur, chunki xavfsiz va adolatli jamiyatni qurish har birimizning qo'limizda".Hamma odamlar o'z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak" deb ta'kidlanadi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023- yil.
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.
3. "Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to'g'risida"gi deklaratsiyasi.
4. "Xotin – qizlar huquqlarini kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiyasi.
5. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" Qonuni.
6. "2030-yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasi". Senat yalpi majlisi. Gazeta.uz.
7. Mirziyoyev. Sh.M. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi. Toshkent.: O'zbekiston. 2023.
8. Qur'oni Karim. Tarjima va izohlar muallifi Shayx Alouddin Mansur. "Cho'lpon" nashriyoti, Toshkent - 1992-yil.
9. "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam». Tarjimon: Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "HILOL-NASHR" nashriyoti. Toshkent - 2018-yil.
10. Mamasoliyeva Gulnoza Abdurahmon qizi. (2024, November 3). YANGI O'ZBEKISTONDA AYOLLAR HUQUQLARI KAFOLATLANISHINING HUQUQIY ASOSLARI VA IJTIMOIIY AHAMIYATI. 347-351.